

BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA TARBIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI VA USULLARI

Sheraliyeva Nasiba Alimkulovna

Guliston davlat pedagogika institute mustaqil tadqiqotchisi

nasibasheraliyeva23@gmail.com

Annotatsiya : Maqolada ta'lim jarayonida boshlang 'ich sinflarda tarbiya darsini o'tishning zamonaviy usullari hamda interfaol metodikalarining ahamiyati va bolalarning rivojlanishida tarbiya fanning ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, tarbiyaning samarasi tahlili, o'quvchi nutqini rivojlantiruvchi hamda so'z boyligini oshiruvchi topshiriq va vazifalardan unumli foydalanishi va o'qituvchilarning bu berilgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalana olish metodlari va uning amaliy qo'llanishdagi o'rni haqida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, nutq, so'z boylig, metodlar, vatanparvarlik, ta'lim jarayoni, rivojlanish, odatlar, usullar, boshlang 'ich sinf o'quvchilari, tarbiyaning ahamiyati.

Annotasiya: the article explores the modern methods of taking the educational lesson in primary classes, as well as the importance of interactive methodologies and the importance of Educational Science in the development of children. It has also been analyzed about the effectiveness of upbringing analysis, the effective use of tasks and tasks that develop student speech and increase vocabulary, and the methods by which teachers are able to use these given opportunities and its role in practical application.

Keywords: upbringing, speech, vocabulary wealth, methods, patriotism, educational process, development, habits, methods, beginning graders, importance of upbringing.

Ключевые слова: воспитание, речь, словарный запас, методы, патриотизм, образовательный процесс, развитие, привычки, методы, начало 'ученики 1 класс, важность восп.

Аннотация: в статье "Начало образовательного процесса" исследуется значение современных методов и интерактивных методик проведения урока воспитания в 1 классе и значение дисциплины воспитания в развитии детей. Также был проведен анализ эффективности воспитания, продуктивного использования учащимся заданий и задач, развивающих речь и расширяющих словарный запас, а также методов, с помощью которых учителя могут правильно использовать эти предоставленные возможности и их роль в практическом применении.

Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash insoniyatning eng ulug' ezgu-niyati bo'lib kelgan. Bu niyatning ro'yobga chiqishi uchun jamiyatning barcha qatlamlari faol ishtirok etishi talab qilinadi. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari-eng mo'tabar ziyolilari, ma'rifat va madaniyat darg'alari bo'lganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'rni, ulkan nufuzi borligi hammaga ayon. Bu jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan haqiqatdir. Barkamol avlodni tarbiyalash borasida xalqimiz tarixidan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin.

Prezident Sh. M. Mirziyoev ulg'aygan, voyaga etgan yoshlarni barkamol avlod deb baholadi. Haqiqatda ham Vatani, millati va xalqi uchun aql-zakovati, kuch-g'ayrati, zarur bo'lsa jonini fido qiluvchilar barkamol avlod vakillaridir.

Mamlakatimizda ham uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda malakasini uzluksiz oshirish bo'yicha keng islohotlar olib borilishi natijasida

o'qituvchilarni tayyorlashning o'ziga xos tizimi yo'lga qo'yildi. O'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning pedagogik va psixologik omillari murakkab, muntazam ravishda maqsadli amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir.

Prezident Sh.M. Mirziyoev tashabbusi asosida sog'lom avlodni tarbiyalashga, ma'naviy yetuk, axloqan pok, intellektual qobiliyati kuchli, bilimdon, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamlı tadbirlarni amalga oshirish maqsadida hukumatimizning maxsus qarorlari asosida Davlat dasturlari qabul qilindi va ularni bajarish jarayonida

ulug'vor ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son farmoni bilan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi»da «...kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish»¹ vazifasi qo'yilgan bo'lib, oliy pedagogik ta'limda bo'lajak

o'qituvchilarni o'quvchilarga axloqiy tarbiya berish faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliy-metodik tavsiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus ishlangan o'quv dasturi ularning yoshi va o'ylash qobiliyati va aqliy mahoratiga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'ladi. Bola yuqori sinflarga o'tish davomida o'quv dasturlari ham qiyinlashib boradi. Bu degani boshlang'ich sinflarda mavzular sodda tilda, o'yin metodlari bilan qiziqarli va oddiygina o'tilgan bo'lsa, endilikda ancha murakkablashadi va o'quvchilar oladigan ma'lumotlar hajmi ham kattalashadi. Ayniqsa, bolalarning ulg'ayishi jarayonida atrofda ko'plab omillar ularning tarbiyasiga ta'sir etadi.

Ma'lumki, tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi bo'lib, maktablarda maxsus qaror orqali bu fanning o'tilishi o'quvchilar ongu shuurida vatanga muhabbat, ota-onalarni e'zozlash, katta yoshdagi insonlarga hurmat, umuman olgan ularning salohiyatli va madaniyatli inson bo'lib ulg'ayishlarida muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, aslida tarbiyaning boshi aslida avvalo oiladan boshlanadi. Maktab esa ilm ziyo maskanidir. Bu manzildan bolalar ma'rifatparvar shaxs bo'lib chiqishi zarur. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Aslida tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son farmoni. QHMMB: 06G '19G '5712G '3034-son, 29.04.2019 y.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiya fanidan saboq olishlari juda muhim ahamiyatiga ega. Ayniqsa, tarbiya darslarining metodikalarini tashkil etishda axborot kommunikatsion texnologiyalarni va vositalaridan foydalanish kerak. Insoniyatning ko'payishi tabiat qonuni bo'lgani kabi bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota-onaning bola tarbiyasi uchun javobgarligi ham jamiyatimizning qonunidir. Azaldan bola tarbiyasi bilan yoshligidan, asosan, ona shug'ullangan, otaning asosiy vazifasi oilani boqish bo'lib, uyda bo'lgan vaqtda bolani nazorat qilib borishdan iborat edi. Bugungi oilaviy tarbiya, "Milliy va zamonaviy o'zbek bolasining siymosi qanday bo'lishi kerak?" degan savolga javob talab qilmoqda. Bugungi bola o'tgan asr bolasidan keskin farq qiladi, o'zbek o'g'il-qizlari zamonaviy komil inson siymosiga ega bo'lmog'i lozim. Tabiiyki, bu jarayonda oilaviy tarbiyaning o'rni beqiyos. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o'z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o'z ta'sirini o'tkazib turadi.

Bolalar ayni boshlang'ich sinf bo'lishgan paytda ancha rivojlangan va tarbiyalashda ham taqlid qilishga moyillik paydo bo'ladi. Bu vaqtda to'g'ri dars o'tish metodikasi bilan bolalarni tarbiya qilishda bu fan muhimdir. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi. Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish muhimdir. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin. Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi. Umumiy pedagogika jarayonida tarbiya muhim o'rin tutadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga

ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish

yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yoshlarni barkamol qilib shakllantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ammo jamiyat jaddal taraqqiyotining barcha bosqichlarida yoshlarni o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning pedagogik va psixologik omillari alohida e'tibor qaratilmaganligi bu muammoni o'rnini belgilash, ilmiy mohiyatini asoslash holatini o'rganilishi muammoga yanada chuqurroq kirib borishga va bu masalaga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo'la oladi.

Taraqqiyotning asosi ma'naviyatli xalq, ma'naviyatli millat, ma'naviyatli shaxs, ma'naviy yetuk inson qo'lida bo'lishi lozimligini bugungi hayot tarzi va uning rivoji ko'rsatib turibdi. "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" Bosh

g'oyamiz hisoblanib, bu g'oyani ma'naviy etuk, barkamol insonlarga amalga oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. <https://5013007>

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni G'G' O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2017 yil, 6-son, 70-modda.

4. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped. fan. nom. ... dis. –T., 2002.

5. Inogomova S. Mantiqiy fikrlash G'G' J. Boshlang'ich ta'lim. №2. - 20-21 betlar.

6. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish. -TDPU. 2004. 35 b.

7.Zohidova S.R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari. Ped.fan.dok.diss T.:2019.

8.Qayumova, S. (2022). БЎЛАЖАК БОСШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВСЧИЛАРИНИ ТИМСС ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ ДАСТУРИ АСОСИДА МЕТОДИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУЛТИМЕДИЯ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Science and innovation*, 1(B4), 159-162.

9. Shohsanam, K. (2023). THEORETICAL IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE. *Science and innovation*, 2(Special Issue 3), 159-162.

10. Kayumova, S. T. qizi, Sharipov, S. R., Abdullayev, K. A. ugli, & Nurmatov, I. S. (2023). THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING STUDENTS' READING

PROFICIENCY BASED ON MODERN TRENDS. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(12), 57–61.

11. To‘lqin qizi Kayumova, S., Sharipov, S. R., ugli Abdullayev, K. A., & Nurmatov, I. S. (2023). THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING STUDENTS' READING PROFICIENCY BASED ON MODERN TRENDS. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(12), 57-61.

12. Kayumova, S. T. K. (2022). DIFFERENCES BETWEEN PISA AND TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 753-757.

13. Sh. Kayumova (2023). DIDACTIC PRINCIPLES FOR DEVELOPING NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Science and innovation*, 2 (B9), 57-60. doi: 10.5281/zenodo.8348958

14. Sh. Kayumova (2023). DEVELOPMENT OF STUDENTS' READING LITERACY THROUGH TRIZ PEDAGOGY. *Science and innovation*, 2 (B10), 157-160. doi: 10.5281/zenodo.8433398

15. Qayumova, S. (2022). БЎЛАЖАК БОСШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ TIMSS ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ ДАСТУРИ АСОСИДА МЕТОДИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУЛТИМЕДИЯ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Science and innovation*, 1(B4), 159-162.

16. Shahrididinova, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.

17. Shahrididinova, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.

18. Shahrididinova K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – Т. 19. – С. 183-187.

19. Shahrididinova K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD //American Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 09-14.

20. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF "NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.

21. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF "NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B6. – С. 214-218.

22. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 11. – С. 737-740.

23. Karimova, S., & Ashurova, M. (2023). TYPES OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 161–163. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22537>

24. Mamatova, X., Karimova, S., & Turg'unboyeva, M. (2023). EDUCATION IS UPBRINGING, KNOWLEDGE IS SALVATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 164–166. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22538>

25. Mamatova, . H., Karimova, S., & Mamayusupova, . Z. (2023). PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Modern Science and Research*, 2(9), 5–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23865>

26. Karimova S., Habibullayeva S. THE ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PEDAGOGY //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 40-44.

27. Karimova Sevara Shaxriddin Qizi. (2023). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 43–45. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1105>

28. Mamatova H., Karimova S., Mamayusupova Z. PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 5-8.

29. Sevara, K., & Maftuna, S. (2024, February). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIGA QO 'YILGAN ZAMONAVIY TALABLARNING XUSUSIYATI VA AHAMIYAT. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 65-67).

30. Sevara, K., & Mahliyo, X. (2024, February). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 68-70).